
QIZILTEPADA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Oltiariq tumani hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasi, sektor rahbarlari hamda tumandagi tashkilot-muassasalar hamkorligida tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlarida fuqarolar murojaati bilan ishlash, ularning muammolariga yechim topish va hayotdan rozi qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, hududlarda «Inson qadri uchun» g'oyasi asosida tashkil etilayotgan muloqotlar aholiga o'zlarini o'ylantirayotgan masalalar yuzasidan rahbarlar bilan yuzma-yuz gaplashish va hududlarni yanada rivojlantirish imkonini bermoqda.

Navbatdagi sayyor qabul Qiziltepa mahalla fuqarolar yig'inidagi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etilib, unda hududdagi aholi vakillari ishtirok etdilar.

Fuqarolar tomonidan tadbirkorlik uchun kredit olish, moddiy yordam, bandlik, tibbiy yordam va boshqa masalalar bo'yicha yo'llangan murojaatlar yo'nalishi bo'yicha nazoratga olinib, ularning aksariyat joyida ijobiy hal etildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-07 15:00:49